

Viloyat hokimligi tomonidan DTPI ga biriktirilgan Oltinsoy tumanidagi maktablarga metodik yordam ko'rsatish chora-tadbirlarining amaliy ijrosi yuzasidan Oltinsoy tumanidagi 40- umumta'lim maktabiga o'quv-uslubiy ko'mak berish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasidan biriktirilgan o'qituvchilarining 11.11.2024 kuni maktabga tashrifi davomida amalga oshirilgan ishlari

HISOBOTI

Oltinsoy tumanidagi 40- umumta'lim maktabiga Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasidan kafedra mudiri PhD R.V.Salomova, kafedra o'qituvchilari Z.Jumayeva, Q.Atamurodova, H.Allayevalar tashrif buyurdi.



Maktab direktori A.Jo'rayev va direktor o'rinbosarlari bilan suhbat olib borildi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan maktabda amalga oshirilayotgan ishlar bilan atroflicha tanishib chiqildi. Maktabda tashkil etilgan fan to'garaklari talab darajasida emasligi aniqlandi. Shuningdek, 2024-2025- o'quv yilida bitiruvchilarning oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichlarini ko'tarish uchun "Abituriyent shtabi" ni tashkil etish yuzasidan maktab ma'muriyatiga kerakli tavsiyalar berildi va shu asosida grafiklar tuzish uchun namunalar keltirildi.

(Xususan, o'tgan o'quv yilida 43 nafar bitiruvchilardan 26 nafari oliy o'quv yurtlariga qabul qilingan (direktor axboroti)).

Kafedra mudiri R.V.Salomova ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari M.Soatov bilan suhbat jarayonida dars jarayonlarining tashkil etilishi va o'tgan hafta davomida bajarilgan ishlarning hisoboti yuzasidan suhbat o'tkazdi. Berilgan topshiriqlar o'z vaqtida bajarilmaganligi aniqlandi.



Maktab kutubxonasi faoliyati bilan yaqindan tanishib chiqildi va badiiy adabiyotlar yetishmovchiligi yuzasidan tavsiyalar berildi. Maktab sinf xonalarini namunaviy rasmlar asosida jihozlash yuzasidan sinfxonalar bilan tanishib chiqish davomida ayrim xona va zallarda ko'rgazmalar yetishmasligi aniqlandi. R.V.Salomova tomonidan namunaviy ko'rgazmalar ko'rsatilib, kerakli tavsiyalar berildi.



Shuningdek, professor –o‘qituvchilar 2- smenadagi o‘quv jarayonini ham tahlil qilish uchun darslar tahliliga kirishdi. Xususan, 6- ^A sinfda Baxtiyor Ostnaqulovning ona tili fanidan , 7- sinfda musiqa, rus tili fanlaridan dars jarayonlari tahlil etilib, o‘quvchilarning daftarlari ham tekshirildi. Bu jarayonda daftarlardagi kamchiliklar aniqlandi. Kuzatishlardan so‘ng, tahlil jarayonlari maktab direktori va o‘rinbosarlari hamkorligida o‘tkazildi. Rahbariyat tegishli chora-tadbirlarni va tushuntirish ishlarini amalga oshirishga va’da berdi.



To‘garak mashg‘ulotlari va “Abituriyent shtabi” faoliyati nazoratini kuchaytirish, bitiruvchilarning bilim samaradorligini oshirish yuzasidan ham metodik tavsiyalar va ko‘rsatmalar berildi. Amalga oshirish zarur bo‘lgan tizimli ishlar o‘zaro belgilab olindi.





Maktab direktori:



A.Jo'rayev